

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM
TIZIMI UCHUN PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH
JARAYONINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI**

Radjapova Z.T.

*Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lism texnologiyasi" kafedrasiga
dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Mirzayeva G.Z.

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lism mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lism tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yosh avlodning aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyatini oshirishda pedagog kadrlarning roli qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lism tizimi, yosh avlod, aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyat, pedagog kadr, integratsiya, yondashuv, didaktik o'yin, bilim.

Аннотация: В статье изложено мнение о проводимых в нашей стране реформах в области подготовки педагогических кадров для системы дошкольного образования, о том, насколько важна роль педагогических кадров в повышении умственно-интеллектуального, эстетического, физического, духовного потенциала подрастающего поколения.

Ключевые слова: система дошкольного образования, подрастающее поколение, умственно-интеллектуальный, эстетический, физический, духовный потенциал, педагогический кадр, интеграция, подход, дидактическая игра, знания.

Annotation: The article sets out an opinion on the reforms being carried out in our country in the field of training teachers for the preschool education system, on how important the role of teaching staff is in increasing the mental-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

intellectual, aesthetic, physical, and spiritual potential of the younger generation.

Key words: preschool education system, younger generation, mental - intellectual, aesthetic, physical, spiritual potential, teaching staff, integration, approach, didactic game, knowledge.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bilamizki, 2022 yil 28 yanvarda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbuskorligi bilan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston "Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida prezident farmoni e'lon qilindi. Ushbu "Taraqqiyot strategiyasi"da 7 ta ustuvor yo'nalishlar belgilandi va shu yo'nalishlar bo'yicha 100 ta maqsad belgilanib olindi. Shu yo'nalishlardan to'rtinchisi bo'lmish "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" yo'nalishida maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratildi. Bunda 38-maqсадда **maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish ya'ni**, 2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish; maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalg qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish. **39-maqсадда maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish ya'ni**, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish; 2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish; maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish. **40-maqсадда esa maktabgacha ta'lim tizimida budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash ya'ni**, maktabgacha ta'lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun sharoitlarni yaratish kabi maqsad va vazifalar belgilandi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodning aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyatini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish alohida dolzarblik kasb emoqda. Bu borada pedagog rahbar jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisiga aylanishi muqarrar.

Hozirgi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta'limni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta'lim berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo hisoblanadi. Aynan, maktabgacha ta'limni isloh qilishda bolaning mакtabga tayyorgarligi bilan belgilanuvchi ta'lim sifatini oshirish muhim va zarur hisoblanadi.

Shu jihatdan olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda rahbarlik layoqatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oldiga yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ydi. Bu esa bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holatda tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma’naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi matabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma’nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri - erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha qilib aytganda, o‘z xaq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo‘layotgan voqeа va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas’uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san’atining tayyor andozasi yoki qolipi mayjud emas. Ushbu san’atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko‘p yillik tajriba talab etiladi. Mazkur vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar xodimlarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishida maktabgacha ta’lim tizimining yangi avlod rahbarlarini shakllantirish masalasi ham kundalik dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalar sirasiga kiradi. Bunda rahbarning muvofiqlashtirish, rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va baholash vazifalari bilan uyg‘unlikda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalari to‘g‘risida e’tirof etilgan funktsiyalar bolalarning intellektual jihatdan voyaga yetishiga, ma’naviy barkamol shaxs bo‘lib shakllanishiga va pedagog xodimlarning ilmiy-ma’naviy jihatdan o‘sishiga, siyosiy va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun maktabgacha ta’lim pedagog kadrlarini tayyorlashda bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta’minlab bera oladigan **o‘z ishini mukammal egallagan mutaxassislarni tayyorlashda bir qator punktlarga e’tibor qaratish joiz. Iloji boricha** ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo‘li bilan maktabgacha ta’lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirib, xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko‘p darajali uzlusiz ta’lim tizimini tuzish uchun **zamin yaratish lozim**.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Maktabgacha ta’lim jarayonida insonparvarlik omilini ta’minlaydigan pedagoglarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi:

- talabchanlik;
- haqqoniylit;
- halollik;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- mehribonlik;
- xushmomalalik.

Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim-tarbiya oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Zero, shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati - tarbiyachi va xodimlarning kasbiy rivojlanishi tavsifi bo'lib, zamonaviy bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanishi e'tirof etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalar, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanadi. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nан barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnraqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergen ta'lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin yaratadi. Yana shuni aytishimiz ham mumkin-ki, professional pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning bilim darajasini, tanqidiy fikrlashini, mashg'ulotlarni beshta rivojlanish markazlari doirasida intergatsiyalashgan holda didaktik o'yinlar orqali olib borishini, ijodkorlik kabi ko'nikmalarini rivojlantirib shakllanib borishiga yordam bera oladigan metodlarni qo'llash joizdir. Nazariy olgan bilimlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalda qo'llaganlarida bor mehr-muxabbati bilan yondoshishlari muqarrar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimi uchun professional pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga o'yin orqali sifatli ta'lim berish, sifatli o'quv jarayonini tashkil qilishda pedagog kompetentsiyasini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rivojlantirish, ta'lism sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi - turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda pedagogning layoqatini oshirish kabi bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Zero, maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarbiyalanuvchilari kelajakda yetuk komil inson bo'lib yetishishi aynan pedagoglar qo'lidadir.

ADABIYOTLAR:

1. Жуманиязова, З. Р. (2021). ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР ВА УЛАРНИНГ ЯРАТИЛИШИ: Жуманиязова Злиха Реймовна Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти мактабгача таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 119-122.
2. Reimovna, Z. Z. Education of Preschool Children to Be Educated, Educated, Physically Healthy, Strong. JournalNX, 696-699.Tirkashevna, R. Z. (2022). Specific Characteristics of Development of Personal Creative Ability. *Telematique*, 6840-6846.
3. Sultansaidova, M. (2023). SOME ASPECTS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL. International Journal of Pedagogics, 3(02), 51-55.
4. Sultansaidova, M. (2023). DEVELOPMENT STAGES OF PRESCHOOL EDUCATION PEDAGOGY. Confrencea, 4(04), 386-393.
5. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish ". Ta'lism sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.
6. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Bo'lajak tarbiyachilarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida". Science and innovation, Special Issue 4, 3 march 2023. 57-59

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

7. Tirkashevna, R. Z. (2023). LANDSHAFT DIZAYNI BO ‘YICHA TA'LIM: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(1), 158-164.
8. 3. Раджапова, У. Абдурауфова ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА // SAI. 2023. №В1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-importance-of-using-methods-in-the-professional-training-of-future-teachers-on-the-basis-of-an-integrative-approach> (дата обращения: 09.11.2023).
9. Раджапова, З. Т., & Мирзаева, Г. З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ.(в дошкольных образовательных организациях). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 70-76.
10. Radjapova, Z. (2023). PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 9), 393-396.